



THE EFFECTIVENESS OF USING INTERACTIVE METHODS IN THE ANALYSIS OF LITERARY WORKS

Zaripova Mukhlisa

Student of the Faculty of Turkic Languages, Nukus State Pedagogical
Institute, Department of Uzbek Language and Literature

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15877617>

ARTICLE INFO

Received: 27th March 2025

Accepted: 30th March 2025

Online: 31st March 2025

KEYWORDS

Literary analysis, interactive
methods, teaching
methodology, critical
thinking, literary work,
pedagogical effectiveness,
student engagement, lesson
process, mutual
communication,
methodological approach.

ABSTRACT

This article explores the theoretical and practical foundations of using interactive methods in the analysis of literary works. It examines the role of interactive methods in developing students' critical and creative thinking skills, as well as their effectiveness in enhancing literary analysis. The paper also analyzes the implementation of these methods in specific lesson examples and evaluates the pedagogical outcomes achieved through their application. The advantages of interactive approaches are substantiated based on classroom practices. This article may be useful for teachers, methodologists, and researchers in the field of pedagogy.

ADABIY ASARLARNI TAHLIL QILISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Zaripova Muxlisa

Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15877617>

ARTICLE INFO

Received: 27th March 2025

Accepted: 30th March 2025

Online: 31st March 2025

KEYWORDS

Adabiy tahlil, interfaol
metodlar, o'qitish
metodikasi, tanqidiy
fikrlash, badiiy asar,
pedagogik samaradorlik,
o'quvchi faolligi, dars
jarayoni, o'zaro muloqot,
metodik yondashuv.

ABSTRACT

Ushbu maqolada adabiy asarlarni tahlil qilishda interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Interfaol metodlarning o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishdagi roli, adabiy tahlilning samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda konkret dars namunalarida qo'llanilishi tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalangan holda erishilgan pedagogik natijalar tahlil etilib, ularning afzalliklari asoslab berilgan. Maqola o'qituvchilar, metodistlar va pedagogika yo'nalishidagi tadqiqotchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.



Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan tub o'zgarishlar, pedagogik texnologiyalarning yangilanishi, zamonaviy interfaol metodlarning dars jarayoniga joriy etilishi o'qituvchidan yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Xususan, adabiyot fani o'qitishda an'anaviy yondashuvlar o'rnini interfaol, o'quvchini markazga qo'yadigan metodlar egallamoqda. Adabiy asarlarni tahlil qilish bu fanning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan tahlil jarayoni orqali o'quvchida badiiy asarning mohiyatini, g'oyaviy yo'nalishini, obrazlar tizimini anglash, fikrlash va baholash kompetensiyalari shakllanadi. Interfaol metodlar adabiy tahlilni qiziqarli, samarali, tanqidiy va ijodiy yondashuv asosida olib borish imkonini beradi. O'quvchilar darsda passiv ishtirokchi emas, balki faol suhbatdosh, izlanuvchi, muhokamachi sifatida qatnashadi.

Interfaol metodlar va ularning mohiyati. Interfaol metodlar – bu o'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida teng ishtirok, o'zaro muloqot va hamkorlikka asoslangan usullar majmuasidir. Bu metodlar o'quvchilarni fikrlashga, savol berishga, mulohaza yuritishga, tahlil qilishga va o'z fikrini asoslab aytishga undaydi. Adabiyot darslarida eng ko'p qo'llaniladigan interfaol metodlarga quyidagilar kiradi:

- “Aqliy hujum” (Brainstorming);
- “Klaster” (Guruhlash);
- “Insert” (Belgilar bilan o'qish);
- “Sokrat savollari”;
- “Bahs-munozara”;
- “Baliq skeleti” modeli;
- “Konseptual jadval”;
- “Rolli o'yinlar”.

Bu metodlar orqali adabiy tahlil jarayoni nafaqat o'quvchi bilimni sinovdan o'tkazadi, balki uning mustaqil fikrlash, baholash, taqqoslash, sabab-oqibat aloqalarini ko'ra olish salohiyatini rivojlantiradi.

Adabiy tahlilda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari. Adabiy asarlarni tahlil qilish – bu birgina mazmuni tushunish emas, balki asarning g'oyasini anglash, badiiy vositalarni tahlil qilish, obrazlar tizimini o'rganish, muallifning fikr va qarashlarini aniqlash demakdir. Bu jarayon o'z-o'zidan oson kechmaydi. Shuning uchun o'qituvchi interfaol metodlardan foydalanib, quyidagi jihatlarni amalga oshiradi:

- O'quvchilarni asarga nisbatan qiziqishini oshiradi;
- Tahlilni chuqurlashtiradi;
- Har bir obrazni o'ziga xos talqinda baholashga imkon beradi;
- O'quvchining fikrini erkin ifoda qilishiga sharoit yaratadi;
- Asar mohiyatiga doir turli qarashlarning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Masalan, “Ot kishnagan oqshom” asarini tahlil qilishda “Baliq skeleti” modeli orqali asosiy muammolar, sabablar va yechimlar ajratib olinadi. Bu esa o'quvchilarning sabab-oqibatni aniqlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Interfaol metodlar asosida o'tkazilgan dars namunasi. Quyidagi dars “Temur tuzuklari” asariga bag'ishlangan bo'lib, asosiy maqsad – asarning tarixiy, badiiy va axloqiy jihatlarni tahlil qilishdir.



Bosqich 1. "Aqliy hujum" – Temur siymosi haqida qanday tasavvurlarga egasiz?

Bosqich 2. "Insert Metodi" – matndan kerakli fikrlar belgilanadi ("+" – ma'lum, "-" - yangi, "!" - qiziqarli, "?"- tushunarsiz).

Bosqich 3. Rolli o'yin – O'quvchilar Temur, uning noiblari va tarixchilari rovida chiqish qiladi.

Bosqich 4. "Sokrat savollari" orqali tahlil – "Agar Temur bugun yashaganida, qanday yetakchi bo'lar edi?" kabi ochiq savollar.

Bu kabi metodik yondashuv orqali o'quvchi nafaqat matnni o'qiydi, balki uni chuqur anglaydi, tahlil qiladi va bugungi kun bilan bog'laydi.

Pedagogik kuzatuvlar asosida interfaol metodlarning samaradorligi. Adabiy asarlarni tahlil qilishda interfaol metodlar qo'llanilganda: O'quvchilarning darsdagi faolligi 2-3 barobarga ortadi; O'z fikrini erkin ifoda eta olish ko'nikmalari shakllanadi; Matnni tanqidiy tahlil qilish darajasi oshadi; O'quvchilar orasida hamkorlik va ijtimoiy kompetensiyalar rivojlanadi; O'rganilgan asarlar uzoq vaqt esda qoladi. Bu metodlarni muntazam qo'llab borish, o'qituvchining ijodkorligini va innovatsion yondashuvlarini namoyon etadi.

Xulosa

Adabiyot fanining asosiy maqsadi o'quvchida badiiy-estetik dunyoqarash, tanqidiy fikrlash, milliy qadriyatlarni anglash va baholash kabi ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bu jarayonda interfaol metodlarning tutgan o'rni beqiyosdir. Ular orqali adabiy asar tahlili osonlashadi, tushunarli bo'ladi, eng muhimi, o'quvchining darsga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi. Interfaol metodlardan foydalanish o'qituvchining metodik mahoratini oshiradi, darslarni ijodiy tashkil etishga yordam beradi. Shunday ekan, adabiy tahlil jarayonida interfaol metodlarga keng o'rin berish zamon talabi bo'lib, ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

References:

1. Xudoyberganov U. "Adabiyot o'qitish metodikasi", Toshkent, 2021.
2. To'xtayeva M. "O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni", Ilm va taraqqiyot jurnali, 2022.
3. Karimova N. "Zamonaviy adabiyot darslari: metodik yangilanishlar", O'qituvchi nashriyoti, 2023.
4. Internet manbalari: pedagog.uz, eduportal.uz, ziyonet.uz